

# **MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA PUL-KREDIT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

*Ismoil ISRAILOV,  
TDIU magistranti*

**Annotatsiya** Maqolada moliyaviy xavfsizlik vauning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, pul-kredit siyosatini takomillashtirish orqali moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash yo'nalishlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** moliya, xavfsizlik, moliyaviy xavfsizlik, pul, banklar, pul-kredit siyosati, raqamli texnologiyalar.

## **СПОСОБЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДЕНЕЖНО-КРЕДИТНОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ**

В статье рассматриваются финансовая безопасность и её значение для экономики страны. Также приведены направления обеспечения финансовой безопасности через совершенствование денежно-кредитной политики.

**Ключевые слова:** финансы, безопасность, финансовая безопасность, деньги, банки, денежно-кредитная политика, цифровые технологии.

## **WAYS TO IMPROVE MONETARY AND CREDIT POLICY IN ENSURING FINANCIAL SECURITY**

The article discusses financial security and its importance in the country's economy. It also outlines ways to ensure financial security through the improvement of monetary and credit policy.

**Key words:** finance, security, financial security, money, banks, monetary policy, digital technologies.

Milliy iqtisodiyotimizni turli tahdidlardan himoya qilish, jamiyat hayot faoliyatining bir qancha sohalarida kechadigan jarayonlarni, shu jumladan korrupsiya va xufyona iqtisodiyot bilan bog'liq bo'lgan masalalarni o'rganish va ularni oldini olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, chora-tadbirlar samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy tizimdagи har qanday o'zgarishlar turli xavf-xatar va tahdidlarning namoyon bo'lishi bilan birga kechadi. Shuning uchun ham mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, unga bo'ladigan turli tahdidlarning oldini olish masalasi yuzaga keladi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni izchil amalga oshirish, milliy iqtisodiyotni yangi davr darajasiga ko'tarish, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish tarmoqlarini vujudga keltirish va jahon iqtisodiyoti integratsiyasiga jadallik bilan kirib borish, hamda moliya tizimida xavfsizlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti iqtisodiyotning

modernizatsiyalashuvi, ishlab chiqarish tarkibidagi o'zgarishlarni amalga oshirish, iqtisodiy tarmoqlarda zamonaviy texnika-texnologiyalarni joriy qilish va shu asosda raqobatbardoshlikka erishish, jahon bozorlaridan mustahkam o'rin egallash, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirish kabi vazifalarni amalga oshirish bilan bevosita bog'liq. Mazkur masalalarni ijobjiy hal qilish va moliya tizimining barqarorligini ta'minlash bevosita moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali yosh avlodni moliyaviy ta'lim bilan ta'minlash, xavf darajasini hisobga olgan holda to'g'ri qarorlar qabul qilish imkonini beradi, bu esa moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashning zaruriy shartidir.

Global ta'sir va globallahuv jarayonlari asosan bir nechta omillar orqali rivojlanmoqda. Bu jarayonlar ko'plab mamlakatlarning o'z suvereniteti va iqtisodiy mustaqilligini yo'qotishiga olib kelgan bo'lsa-da, ularning boshqa tomondan rivojlanishiga ham yordam berdi. Hozirgi iqtisodiy sharoitda, milliy rivojlanishning ustun yo'nalishlarini yo'qotmaslik uchun iqtisodiy xavfsizlik talablarini inobatga olish muhim bo'lib bormoqda. Jahon iqtisodiy rivojlanishining globallahuv tufayli yuzaga keladigan asosiy muammo shundaki, suverenitet va iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlash bilan bir vaqtda tashqi iqtisodiy faoliyatdan foyda olish masalasini hal qilish yanada murakkablashib bormoqda.

Moliyaviy xavfsizlik – bu davlatning moliyaviy tizimi tashqi va ichki xavf-xatarlarga qarshi barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash holatidir. Ushbu tushuncha zamonaviy iqtisodiyotda katta ahamiyat kasb etadi, chunki globalizatsiya sharoitida moliyaviy tizimning mustahkamligi butun iqtisodiy tizimning samaradorligini belgilaydi. Moliyaviy xavfsizlik nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning ham asosi sifatida qaraladi.

Turli adabiyotlarda moliyaviy xavfsizlik tushunchasiga turlicha ta'riflar keltirilgan. Jumladan, I. Kiselevaning ta'kidlashicha: "Moliyaviy xavfsizlik — bu davlat va jamiyatning moliyaviy resurslarini boshqarish va ta'minlash tizimi bo'lib, u iqtisodiy mustaqillikni, barqarorlikni va ijtimoiy farovonlikni saqlashga yordam beradi"<sup>1</sup>.

V.Kudrin esa "Moliyaviy xavfsizlik, asosan, davlatning o'z iqtisodiy siyosatini mustaqil amalga oshirish imkoniyatini saqlab qolishga, moliyaviy tizimning barqarorligini ta'minlashga, va xalqaro iqtisodiy tahdidlarga qarshi kurashishga qaratilgan choralarining majmuasidir"<sup>2</sup>, deya ta'kidlaydi.

V.Ivanovning fikricha, "moliyaviy xavfsizlik — bu davlatning moliyaviy tizimining barqarorligi, uning iqtisodiy o'sishini ta'minlash va xalqaro iqtisodiy tahdidlarga qarshi kurashish uchun zarur bo'lgan barcha moliyaviy vositalar va mexanizmlarning majmuasidir"<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Киселева И.А. Экономическая безопасность предприятия // Бизнес. Образование. Право. -2017. -№ 4 (41). -С. 33-37.

<sup>2</sup> (Kudrin, V.N. (2012). Sovremennaya ekonomika i finansovaya bezopasnost.


<sup>3</sup> Ivanov, V.G. (2017). Finansovaya bezopasnost' i problemy ee obespecheniya v usloviyah globalizatsii

Bu ta'riflar moliyaviy xavfsizlikning turli jihatlariga e'tibor qaratadi, jumladan, davlatning iqtisodiy tizimi, xalqaro tahdidlar, va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish kabi asosiy omillarni ta'kidlaydi. Har bir olim o'zining yondoshuviga ko'ra, moliyaviy xavfsizlikni turlicha ta'riflagan, ammo umumiylashtirish har doim mamlakat yoki tashkilotning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashdir.

Moliyaviy xavfsizlik — bu davlatning iqtisodiy manfaatlarini makro darajada, shuningdek, korporativ tuzilmalarini, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatini mikro darajada himoya qilish bo'yicha choralar, usullar va vositalar majmuasini anglatadigan tushuncha.

Davlatning moliyaviy xavfsizligi — bu davlatning o'z milliy manfaatlariga muvofiq ravishda mustaqil moliyaviy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirish qobiliyatidir. Davlatning moliyaviy xavfsizligi quyidagi talablarni bajarishi kerak:

- Davlatning iqtisodiy rivojlanish barqarorligini, to'lov va hisob-kitob tizimini va asosiy moliyaviy-iqtisodiy parametrlarni ta'minlash;
- Jahan moliyaviy krizislari va jahon aktorlari (davlatlar, transmilliy korporatsiyalar va boshqalar), shuningdek, soya (klanli-korporativ, mafiya va boshqalar) tuzilmalarining milliy iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy tizimga ta'sirini neytrallashtirish;
- Kapitalning katta hajmdagi xorijga chiqishini, ya'ni iqtisodiyotning real sektoridan "kapitalning qochishini" oldini olish;
- Milliy budjet tizimining resurslarini taqsimlash va foydalanish bo'yicha turli darajadagi hokimiyatlar o'rtasida kelishmovchiliklarni oldini olish;
- Mamlakat iqtisodiyoti uchun eng optimal tarzda xorijiy qarzlar mablag'larini jalb qilish va ulardan foydalanish;
- Moliyaviy huquqiy munosabatlarda jinoyatlar va ma'muriy huquqbazarliklarning oldini olish.



## **1-rasm. Moliyaviy xavfsizlik darajalari<sup>4</sup>**

Davlatning moliyaviy xavfsizligi mintaqalarning moliyaviy xavfsizligi, ularning o'zaro kuchli bog'liqligi va barqaror rivojlanishini ta'minlash orqali aniqlanadi.

Korxonaning moliyaviy xavfsizligi — bu korxonaning noqulay tashqi ta'sirlarga qarshi turish, turli tashqi tahdidlarga tezkor javob qaytarish va tijorat sirlarini, intellektual mulkni va ma'lumotlarni saqlash shartlarini ta'minlash qobiliyatidir.

Korxonaning moliyaviy xavfsizligining asosiy maqsadi — uning hozirgi samarali faoliyatini va keljakdagi rivojlanish potentsialini ta'minlashdir.

Korxonaning moliyaviy xavfsizligi darajasi uning rahbariyati va mutaxassislaring (menedjerlar) mumkin bo'lgan tahdidlardan qochish va tashqi va ichki muhitning ayrim salbiy tarkibiy qismlarining zararli oqibatlarini bartaraf etish qobiliyatiga bog'liqdir.

Shaxsiy moliyaviy xavfsizlik — bu insonning o'zining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun moliyaviy mustaqillikka ega bo'lishi, ham shaxsiy ravishda, ham jamiyat ichida, shuningdek, bu mustaqillikni keljakda saqlash va uni yanada oshirish imkoniyatidir.

Moliyaviy xavfsizlik davlatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, uning ichki va tashqi tahdidlarga qarshi turish qobiliyatini oshirish uchun zarur shartdir. Moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashning bir nechta asosiy omillari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

### **1.Iqtisodiy barqarorlik;**

Moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashning eng muhim omillaridan biri iqtisodiy barqarorlikdir. Davlatning iqtisodiy o'sish sur'ati, inflyatsiya darajasi, ishsizlik darajasi va davlat byudjeti holati moliyaviy xavfsizlikni belgilovchi omillar sifatida qaraladi. Mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni saqlash, jahon bozorlarida o'z o'rnni topish, shuningdek, iqtisodiy o'zgarishlarga tezkor javob qaytarish muhimdir.

### **2.Moliya va kredit tizimining barqarorligi;**

Moliya tizimining barqarorligi davlat moliyaviy xavfsizligining muhim jihatni hisoblanadi. Mamlakatda mustahkam bank tizimi, samarali to'lov tizimi va qarzlarning boshqarilishi moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, kreditning qulay sharoitlarda taqdim etilishi va kredit risklarini boshqarish tizimi ham mustahkam moliyaviy xavfsizlikka hissa qo'shadi.

### **3. Xalqaro moliya bozorlari bilan aloqalar;**

Xalqaro moliya bozorlari va iqtisodiy hamkorlik davlatning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va eksport salohiyatini oshirish davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga yordam beradi. Xalqaro bozorlar bilan aloqalarni rivojlantirish, moliyaviy tizimdagagi imkoniyatlarni kengaytiradi.

### **4.Moliyaviy va iqtisodiy siyosatning shaffofligi;**

<sup>4</sup> Muallif ishlanmasi

Moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda hukumatning moliyaviy va iqtisodiy siyosatining shaffofligi, uning hisobdorligi va halolligi ham muhim omildir. Shaffof siyosat iqtisodiy ishonchni oshiradi, investitsiyalarni jalg etadi va moliyaviy risklarni kamaytiradi. Bu, o'z navbatida, davlatning moliyaviy xavfsizligini mustahkamlaydi.

#### 5.Moliyaviy tizimning raqamlashtirilishi;

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot va moliya tizimining raqamlashtirilishi moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Elektron to'lov tizimlari, raqamli valyutalar, onlayn bank xizmatlari orqali moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish tizimni yanada ishonchli va xavfsiz qiladi. Raqamli tizimlar, shuningdek, iqtisodiy tahdidlarni aniqlash va monitoring qilishda ham yordam beradi.

#### 6.Iqtisodiy tahdidlarga qarshi kurashish;

Moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash uchun davlat iqtisodiy tahdidlarga, jumladan, inflyatsiya, iqtisodiy krizislar, korruptsiya va moliyaviy jinoyatlar kabi omillarga qarshi samarali kurashish kerak. Shuningdek, tashqi tahdidlarga, masalan, xalqaro moliyaviy krizislar va global bozor o'zgarishlariga tayyor bo'lish zarur. Davlatning moliyaviy xavfsizligi, shuningdek, iqtisodiy ziddiyatlar va ichki muammolarni bartaraf etishda ham bog'liq.

#### 7.Milliyl moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash uchun qonunchilik bazasi.

Moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda kuchli qonunchilik bazasining mavjudligi juda muhimdir. Huquqiy me'yorlar va normalar moliyaviy bozorlarni tartibga solishga, moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashishga va investitsiya muhitini rivojlantirishga yordam beradi. Qonunlar va reglamentlarning samarali amalga oshirilishi moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Zero, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ular davlatning iqtisodiy barqarorligidan tortib, xalqaro hamkorlik, raqamli iqtisodiyot va kuchli qonunchilik bazasigacha bo'lgan keng doiradagi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu omillar birgalikda mamlakatning moliyaviy xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Петров А.С. Финансовая стабильность и её роль в обеспечении экономической безопасности. – М.: МГУ, 2020. – 210 с.
2. Васильева Т.П. Роль центрального банка в системе финансовой безопасности. – М.: Экономика, 2021. – 205 с.
3. Герасимов И.А. Финансовая безопасность страны: теоретические и практические аспекты. – М.: Финансы и статистика, 2020. – 225 с.
4. Шевченко И.А. Экономическая безопасность и роль финансов в её обеспечении. – М.: НТИ «Капитал», 2019. – 200 с.